



42. Yuzlik. Yuzliklar bilan hisoblash

Yondosh mavzu:
harbiyar

Yuzliklar, o'nliklar
sonlarning o'qilishi



1. Har bir askar safda shaxsiy nomerga ega. Jadvaldagi son askarning o'z joyida turganligini ko'rsatadi. Qaysi nomerlar tushirib qoldirilgan?



1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
11	12		14	15	16	17		19	20
21	22	23	24	25	26		28	29	30
	32	33	34		36	37	38	39	40
41	42	43	44	45	46	47	48		50
51	52		54	55	56	57	58	59	60
61	62	63	64	65	66	67	68		70
71	72	73	74	75	76	77		79	80
81	82	83	84	85		87	88	89	90
91	92		94	95	96	97	98	99	100



2. 100 soni ko'p hollarda yuzlik deb ataladi: $100 = 1$ yuzlik. Bir nechta yuzlikdan iborat sonlarning o'z nomi bor:

Yuz	Ikki yuz	Uch yuz	To'rt yuz	Besh yuz
100	200	300	400	500
1 yuzl.=10 o'nl.	2 yuzl.=20 o'nl.	3 yuzl.=30 o'nl.	4 yuzl.=40 o'nl.	5 yuzl.=50 o'nl.

Olti yuz	Yetti yuz	Sakkiz yuz	To'qqiz yuz	Ming
600	700	800	900	1 000
6 yuzl.=60 o'nl.	7 yuzl.=70 o'nl.	8 yuzl.=80 o'nl.	9 yuzl.=90 o'nl.	10 yuzl.=100 o'nl.

Ularda nechta raqam bor?



3. Paraddan oldin harbiylar harakat rejasini tuzadilar.
 ■ – bu 100 kishilik saf. Reja asosida bayram namoyishida qancha odam bo'lishini daftaringizga yozing:

a) ■ ■ ■ b) ■ ■ ■ ■ d) ■ ■ ■ ■ ■ ■ ■ ■ ■ ■



4. Turli harbiy qismlarning kiyimi turlicha. Agar ko'k beretkalarda 2 yuz harbiy, yashil beretlarda 4 yuz harbiy va qora beretkalarda 3 yuz harbiy safda bo'lsa, bayram namoyishida hammasi bo'lib qancha odam qatnashadi?



5. Taqqoslang.

$$600 + 300 - 200$$

$$400 - 100 + 200$$

$$300 + (900 - 700)$$

$$500 - (200 + 200)$$



6. Harbiy avtomobillar paradi 35 minut, samolyotlar paradi 15 minut davom etadi. Harbiy texnika paradi jami necha minut davom etadi?



7. Harbiy oilalar uchun ikkita uy qurildi. Birinchi uyda 3 yuzta, ikkinchi uyda 2 yuzta ko'p xonadon bor. Harbiy oilalar uchun jami qancha xonadon tayyorlandi?



8. Hisoblang va askarlarning biri boshqasining ketidan turadigan safning qanday atalishini bilib oling.



A (5 yuzl. + 8 yuzl.) – 7 yuzl.

V 19 yuzl. – (4 yuzl. + 11 yuzl.)

E 16 yuzl. – 8 yuzl. – 5 yuzl.

K 11 yuzl. – 8 yuzl. + 2 yuzl

L 4 yuzl. + 8 yuzl. – 3 yuzl.

N (8 yuzl. + 9 yuzl.) – 10 yuzl.

O (15 yuzl. – 6 yuzl.) – 7 yuzl.

500	200	900	200	700	700	600